



2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **9671,3 mlrd.so'mni**, o'sish **6,9 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **2029,1 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **21,0 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **22,2 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalaridan 9671,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 0,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 7,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning – 254,9 % ga o'sishi hisoblanadi.


2018 yilning yanvar - sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2029,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 21,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yil yanvar - sentyabr oylarida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 53,3 foizni va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 46,7 foizni tashkil etdi.


Yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,4 % ulushini), G'uzor (21,1 %) tumanlari, Qarshi shahri (12,6 %), Nishon (9,5 %) va Qarshi(5,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Chiroqchi (1,5 %), Mirishkor (1,5%), Yakkabog' (1,8 %), Kitob (1,9 %) va Shahrisabz (2,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Sanoat mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi tumani (2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 222,2 % ga), Yakkabog' (121,7% ga), Dexqonobod (118,2 % ga), Mirishkor (116,7 % ga) , Kitob (115,0% ga), Koson (111,7 % ga), Qamashi (109,3 % ga) tumanlarida va Qarshi(110,2 % ga) shahrida sezilarli darajada ishlab hiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari, % da



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (34001,4 ming so'm), G'uzor tumanida (10335,5 ming so'm), Nishon tumanida (6300,5 ming so'm) va Qarshi shahrida (4537,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3049,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar - sentyabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 22,2 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (87,4 %), Yakkabog` tumanida (81,9 %), Shaxrisabz tumanida (77,0), Qamashi (66,4 %), Qarshi (60,0%) va Shaxrisabz (56,3 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,6 %), G'uzor tumanida (2,4 %), Nishon tumanida (5,6 %) va Dehqonobod tumanida (11,3 %) kuzatildi.


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 517 tasi Qarshi shahrida, 341 tasi Kitob tumanida, 243 tasi Shaxrisabz shahrida, 218 tasi Yakkabog` tumanida, 185 tasi Qarshi tumanida, 161 tasi Chiroqchi tumanida, 141 tasi Qamashi tumanida, 107 tasi Shaxrisabz tumanida, 129 tasi Koson tumanida, 90 tasi Guzor tumanida, 72 tasi Kasbi tumani, 54 tasi Muborak tumani, 52 tasi Nishon tumanida, 44 tasi Dehqonobod tumanida va 50 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatda 380 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 80 tadan ortiq Qarshi shahriga, 40 tadan ortiq Chiroqchi va Kitob tumanlariga, 30 tadan ortiq Qarshi va Qamashi tumanlariga, 20 tadan ortiq Yakkabog` tumaniga va Shaxrisabz shahriga, 10 tadan ortiq Shaxrisabz, Koson, Guzor va Kasbi tumanlariga to'g'ri keladi.

